

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MARDONOV UMIDJON TOXIR O'G'LI

**KESIB ISHLOV BERISHDA MOYLOVCHI-SOVITUVCHI SUYUQLIKKA
MAGNIT MAYDONI TA'SIRINI TADQIQ QILISH**

**05.02.05 – Mexanik va fizik-texnik ishlov berish texnologiyalari va jarayonlari. Stanoklar
va asbob-uskunalar**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent- 2022

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in technical
sciences**

Mardonov Umidjon Toxir o‘g‘li

Kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqlikka magnit maydoni ta‘sirini
tadqiq qilish.....3

Мардонов Умиджон Тохир угли

Исследование влияния магнитного поля на смазывающе-охлаждающие
жидкости при резании.....21

Mardonov Umidjon Tokhir ugli

Investigation of the effect of a magnetic field on lubricating cooling liquid during
cutting process.....39

Elon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MARDONOV UMIDJON TOXIR O'G'LI

**KESIB ISHLOV BERISHDA MOYLOVCHI-SOVITUVCHI SUYUQLIKKA
MAGNIT MAYDONI TA'SIRINI TADQIQ QILISH**

**05.02.05 – Mexanik va fizik-texnik ishlov berish texnologiyalari va jarayonlari. Stanoklar
va asbob-uskunalar**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent- 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/T1607 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarov Erkin Odilovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Fayzimatov Shuxrat Numanovich
texnika fanlari doktori, professor

Nugmanov Ikrom Nugmanovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Andijon mashinasozlik instituti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.04. raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengashning 2022-yil 18-iyul soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel./faks:(99871) 227-10-32, e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (262-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.:(99871) 207-14-70.)

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil 4-iyul kuni tarqatildi.
(2022 yil 4-iyuldagi 145-raqamli reestr bayonnomasi).




K.A. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor


N.D. Turaxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor


A.A. Muxitdinov
Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy
darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mashinasozlik detallarini ishlab chiqarishda kesuvchi asboblarning mustahkamligini va xizmat muddatini oshirish, ishlov beriladigan detallarning yuqori aniqligini ta'minlash uchun kesish jarayonida moylovchi-sovituvchi suyuqliklardan foydalanishning yangi texnologiyalarni qo'llash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga dunyo miqyosida mashina detallariga ishlov berish aniqligini ta'minlashda alohida o'ringa ega bo'lgan kesuvchi asboblarning turg'unligini oshiradigan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni qo'llashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan metallarni kesib ishlov berishda mehnat unumdorligi yuqori va energiya-resurstejamkor texnologiyalar va qurilmalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada dunyoning qator mamlakatlarida, jumladan, sanoati rivojlangan AQSh, Angliya, Germaniya, Hindiston, Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlarida kesuvchi asboblarning yeyilishga bardoshlilikini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni tadqiq qilish va kesuvchi asboblarning yeyilishga bardoshlilikini oshirish uchun moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning samarali tarkibini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda mashina detallarini tayyorlashda ishlov beriladigan yuzalarining talab qilingan o'lcham aniqligi va g'adir-budirligini ta'minlash hamda kesuvchi asboblarning yeyilishga bardoshlilikini oshirish uchun moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, mashina detallarining aniqligiga erishish va yeyilishga bardoshlilikini oshirishga erishish uchun xizmat qiladigan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning xossalarini yaxshilash uchun ularga turli usullarda ishlov berish texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda mashina detallarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan resurslardan keng foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini hamda sifat ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va ularni amalga qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "... ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, ... birinchi navbatda, import qilinadigan komponentlarni almashtirish orqali ..." bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, metallarga kesib ishlov berish jarayonida, takomillashtirilgan dastgohlar, moslamalar, kesuvchi asboblardan foydalanish va aniqlikni yaxshilaydigan, kesib ishlov berishda foydalaniladigan kesuvchi asboblarning xizmat qilish muddatini oshiradigan texnologiyalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi

to'g'risida¹” gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26 -dekabrdagi PQ-2698-sonli qarori bilan” 2017-2019 -yillar uchun tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha istiqbolli loyihalarni yanada amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-sonli “Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energiya, energiya va resurslarni tejash” ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo olimlari tomonidan metallarni kesib ishlov berish aniqligini va samaradorligini oshirish uchun kesuvchi asboblarning yeyilishga bardoshlilikini yaxshilashni ta'minlaydigan usullarni o'rganish va ishlab chiqish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, jumladan: Shahin Shafiee, Mary Helen McCay and Sarada Kuravi (AQSH), E.Kuram, B.T.Simsek, B.Ozcelik, E.Demirbas, va S.Askin (Angliya) asosi sabzavot moyi, kungaboqar moyi va kanola moyidan iborat bo'lgan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning metallarni kesib ishlov berishda kesuvchi asbobning yeyilishiga ta'sirini o'rganganlar. Jaimin P.Prajapati, Pina M.Bhatt va Naitik S.Patel (Hindiston) o'zlarining ilmiy ishlarida katod yoyli bug'lanish usulidan foydalanib tezkesar po'latdan yasalgan kesuvchi asbobni ustiga yupqa TiAlN va CrN qoplashni tadqiq qilganlar. Bangladeshlik olimlar N.R.Dhar, T.P.Bhowmic va hindistonlik olim A.B.Chattopadhyay birgalikda qattiq qotishmali kesuvchi asboblarning turg'unligi va yeyilish xususiyatlariga moylovchi-sovituvchi texnologik muhitlarning qanday ta'sir qilishini tadqiq qilganlar. Xitoylik olimlar Y.Wang, B.Zhang, Z.Gonglar suyuqliklarning ba'zi xossalriga magnit maydonini ta'sirini o'rganib, tadqiqotlar amalga oshirganlar. Shuningdek, Kristen Trap (Germaniya), Franziska Herter (Germaniya), M.Anayet (Bangladesh), X.Han (Xitoy), Osarenmwinda (Nigeriya) kabi yetakchi olimlar tomonidan magnit maydonining turli xil suyuqliklarga ta'siri va magnitlangan suyuqliklarni sanoatning turli sohalarida qo'llash samaradorligini oshirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

MDH davlatlari olimlaridan A.Y.Kozlyuk, I.A.Ushakova, I.A.Shilova, T.V.Seregina, P.L.Gordiyenko, A.D.Dubinin, Yu.S.Dubrov, B.M.Brjozovskiy, A.S.Vereshaka, V.I.Yezerskiy va boshqalar tomonidan parmalar, metchiklar va tokarlik keskichlarning yeyilishga bardoshlilikini oshirishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Respublikamizda mashina detallarini ishlab chiqarish va ularga mexanik ishlov berish aniqligini yaxshilaydigan asboblari va uskunalarni ishlab chiqish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947 sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” Farmoni

ularning yeyilishga bardoshlilikini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar G.I. Yakunin, E.O. Umarov, F.Y. Yakubov, S.M. Xasanov, T.U. Umarov, M.T. Balabekov, N.S. Abdullaxonov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Hozirgi kunda dunyoda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda kesuvchi asboblarning yeyilish nazariyasi va ularning yeyilishga bardoshlilikini oshirish texnologiyalari, kesish jarayonida moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning ahamiyati va qurilmalarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinayotgan bo'lsa-da, ammo qo'llaniladigan qoplamalarning ba'zilar ishlov beriladigan yuza aniqligiga salbiy ta'sir qiladi va asboblarga qoplamalar qilish ularning tannarxini oshishiga ham olib keladi.

Shu bilan birga, tezkesar po'latdan yasalgan kesuvchi asboblarning yeyilishga bardoshlilikini arzon va ishonchli amalga oshirishni ta'minlovchi boshqariladigan parametrlarga ega texnologiyani ishlab chiqish, ayniqsa, turli xil kesish tezliklarida ishlov berilganda detal yuzasining sifatini ta'minlash uchun moylovchi-sovituvchi suyuqliklar xossalarini optimallashtirish asosida kesish haroratini kamaytirish muammolari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq №2 bayonnomasi asosida 2020-2021 yillarda "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasida "Kesuvchi asboblarning yeyilishga bardoshlilikini oshirish uchun moylovchi-sovituvchi suyuqlikni magnitlovchi qurilmani loyihalash va uni "SUVSANOATMASH" AJ va "Toshkent agregat zavodi" dagi tokarlik dastgohlariga joriy qilish" mavzusida amalga oshirilgan loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi: metallarga kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklarga magnit maydoni ta'sirini tadqiq qilish asosida tezkesar po'latdan yasalgan kesuvchi asboblarning yeyilishga bardoshlilikini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kesib ishlov berishda foydalaniladigan moylovchi-sovituvchi suyuqlikni oqib turgan holatida magnitlash sxemasini va magnitlovchi qurilma loyihasini ishlab chiqish;

magnit maydonini oqib turgan moylovchi-sovituvchi texnologik muhitning fizik-mexanik xossalariga ta'sirini aniqlash;

kesib ishlov berish jarayonida moylovchi-sovituvchi suyuqlikni ta'sir mexanizmini ifodalash va tadqiq qilish;

magnitlangan va magnitlanmagan moylovchi-sovituvchi muhitlarda kesib ishlov berish jarayonini tadqiq qilish;

kesib ishlov berishda magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqlikni qo'llaganda kesuvchi asbobning orqa yuza bo'yicha yeyilishini kesish tezligiga bog'liqligining matematik modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida metallarni kesib ishlov berishda magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklar hamda tezkesar po'latdan yasalgan metal kesuvchi asbobi olingan.

Tadqiqotning predmetini magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqlik muhitida ishlaydigan tez kesar po'latdan yasalgan kesuvchi asboblarning orqa yuza bo'yicha yeyilishga bardoshlilik tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kesuvchi asbobning orqa yuza bo'yicha yeyilishini Brinell lupasi yordamida o'lchash usuli, kesish jarayonida hosil bo'ladigan termo tokni o'lchashning tabiiy termopara usuli, suyuqliklarning fizik-mexanik xossalarini o'lchash usullari, magnetizm, elektromagnit maydon hosil qilishning solenoidli usuli, nazariy va eksperimental tadqiqotlar kompleksi, hisoblash dasturlari hamda differensial tenglamalarni yechishning Kramer usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

metallarni kesib ishlov berishda kesuvchi asbobning yeyilishga bardoshlilikini tadqiqot qilish uchun moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni oqim holatida magnitlash hamda magnit maydon induksiyasini nazorat qilishni soddalashtirish imkoniyatini beruvchi sxema va texnologiya ishlab chiqilgan;

moylovchi-sovituvchi suyuqliklarga tinch holatida va oqim holatida magnit maydonini ta'sir ettirish asosida suyuqliklarning fizik xossalarining o'zgarish mexanizmi va bu o'zgarishning magnit maydon induksiyasiga bog'liqlik darajasi aniqlangan;

metallarni kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqlik muhitiga magnit maydonini ta'siri natijasida suyuqliklarning fizik-mexanik xossalarining o'zgarishi asosida kesuvchi asbobning orqa yuzasi bo'yicha yeyilishining kamayishi aniqlangan;

tanlangan moylovchi-sovituvchi suyuqlik muhitlarida metallarni kesib ishlov berishda kesuvchi asbob orqa yuzasi bo'yicha yeyilishini kesish tezligiga bog'liqligi asosida kesuvchi asbob yeyilishini nazorat qiluvchi matematik model ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

metallarni kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni oqib turgan holatida magnitlovchi qurilma konstruksiyasi takomillashtirilgan;

kesish jarayonidagi moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni oqib turgan holatida fizik xossalarini o'zgarishini ta'minlaydigan magnitlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni magnitlash qurilmasini amaliy qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklar bilan kesib ishlov berishda P6M5 tezkesar po'latdan yasalgan tokarlik kesuvchi asbobining yeyilishi 22 foizga kamayishi aniqlangan;

tokarlik dastgohida turli xil moylovchi-sovituvchi suyuqliklar muhitida kesib ishlov berishda kesuvchi asbobning orqa yuzasi bo'yicha yeyilishini kesish tezligiga bog'liqligining matematik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi, magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni kesuvchi asbobning orqa yuzasi bo'yicha yeyilishiga ta'siri haqidagi nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida olingan eksperimental tadqiqotlar natijalari, nazariyaning olingan tajriba natijalari va umumiy e'tirof etilgan ilmiy g'oyalarga muvofiqligi, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish asosida aniqlangan fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalariga muvofiqligi hamda fizik-matematik formulalari yordamida hisoblangan natijalarni taqqoslashdagi muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati metallarni kesib ishlov berish jarayonida foydalaniladigan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarga magnit maydoni ta'sirini tadqiq qilish asosida tezkesar po'latdan yasalgan kesuvchi asbobning yeyilishga bardoshliligini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati metallarga magnitlangan moylovchi-sovituvchi texnologik muhitida kesib ishlov berish bilan keskichlarni yeyilishga bardoshliligini oshirish asosida ishlov berish aniqligi, mahsuldorligi va samaradorligini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mashinasozlikda metallarni kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklarga magnit maydoni ta'sirini tadqiq qilish texnologiyasini ishlab chiqish uchun olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha olingan nazariy va eksperiment natijalari asosida:

moylovchi-sovituvchi suyuqlikni sovutish xususiyatini oshirish uchun uni oqib turgan holatda magnitlovchi qurilma AJ "SUVSANOATMASH" ishlab chiqarish zavodiga joriy qilingan (AJ "O'ZBEKGIDROENERGO" ning 2022-yil 18-yanvardagi 03-21/176 sonli ma'lumotnomasi). Natijada moylovchi-sovituvchi suyuqlikning kinematik qovushqoqligi 15–20% ga kamaygan va sovutish xususiyatini 15% ga oshirish imkoni yaratilgan;

tezkesar po'latdan yasalgan kesuvchi asboblarning yeyilishini kamaytirish maqsadida AJ "SUVSANOATMASH" zavodidagi tokarlik dastgohlarida metallarni kesib ishlov berish jarayoniga magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklar joriy qilingan (AJ "O'ZBEKGIDROENERGO" ning 2022-yil 18-yanvardagi 03-21/176 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tokarlik kesuvchi asbobining yeyilishga bardoshliligi 1,18-1,22 marta oshirish imkoniyati yaratilgan;

moylovchi-sovituvchi suyuqlikni magnitlash sxemasi va rejimlari AJ "SUVSANOATMASH" zavodidagi tokarlik dastgohlariga joriy qilindi (AJ "O'ZBEKGIDROENERGO" ning 2022-yil 18-yanvardagi 03-21/176 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, moylovchi-sovituvchi texnologik muhitning ishqoriy muhiti (pH) 15 foizga oshdi va suyuqlikning ishlash muddati 15 foizga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro ilmiy va amaliy konferentsiyalarida hamda simpoziumlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha 16 ta ilmiy ishlar e'lon qilingan. Shulardan 9 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy

Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda chop qilingan ilmiy maqolalar bo‘lib, ularning 4 tasi Scopus bazasidagi xalqaro jurnallarda, 4 tasi yuqori impakt-faktorli xalqaro jurnallarda va 1 tasi OAK tavsiya etgan milliy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘yekt va predmetlari tavsiflangan. Shuningdek, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va asosiy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kesib ishlov berishda kesuvchi asbobning yeyilishga bardoshliligi va uni ta‘minlash muammolari**» deb nomlangan birinchi bobida metallarni kesib ishlov berishda qo‘llaniladigan kesuvchi asboblarning yeyilish turlari va ularning yeyilishga bardoshliligi hamda kesuvchi asbobning yeyilishga bardoshliligini oshirish uchun amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili keltirilgan. Shuningdek, kesib ishlov berishda qo‘llaniladigan moylovchi-sovituvchi texnologik muhitlar (MSTM), ularning umumiy xususiyatlari hamda suyuqliklarga magnit maydonining ta‘siri bo‘yicha bo‘yicha qilingan ilmiy ishlar tahlil qilingan.

Bugungi kunda metall kesuvchi asboblarning plastiklik chegarasini saqlab qolgan holda ularning mustahkamligini, yeyilishga bardoshliligini va issiqlikka chidamliligini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mexanik ishlov berish samaradorligi ko‘p jihatdan ishlov berish tezligi, kesilayotgan qatlamning chuqurligi (kesish chuqurligi), kesuvchi asbobning tug‘unligi va boshqalarga bog‘liq. Bularning orasida eng muhim ko‘rsatkich – bu kesuvchi asbobning yeyilishga bardoshliligi hisoblanadi. Kesuvchi asbobning yeyilishga bardoshliligi uning ekspluatatsion xususiyatlarini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichdir. Kesuvchi asbobning qattiqqligi va chidamliligini oshirish uchun asbob kesuvchi qismida qoplamalarni qo‘llash bugungi kunda keng qo‘llanilmoqda. Metallarga ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklar (MSS) dan foydalanish ham asbobning ishlash muddatini ko‘paytirishga samarali ta‘sir qiladi.


Geometrik parametrlarini yaxshilash orqali kesuvchi asbob yeyilishga bardoshliligini oshirish bugungi kunga kelib sezilarli natijalarga olib kelmayapti, shuning uchun hozirgi vaqtda metallga ishlov berishda yeyilish xususiyatlarni sozlash mumkin bo‘lgan sirt modifikatsiyasiga ega bo‘lgan asbob materiallaridan hamda turli xil moylovchi-sovituvchi suyuqliklardan foydalanish tavsiya etilmoqda. Yeyilishga bardoshli qoplamalarni qo‘llash usullarining xilma-xilligiga qaramay, ularning barchasi ham qoplash jarayonining harorati, uning g‘adir budirligi va

boshqalar uchun talablarga javob bermaydi. Magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni kesish jarayonida qo‘llaganda kesuvchi asbobning yeyilishga qanday ta’sir qilishiga oid qilingan ishlar juda kam yoki bu masala umuman o‘rganilmagan. Shuning uchun ham bu ishni, uning maqsadi va vazifalarini bajarishga ehtiyoj juda katta.

Kesuvchi asboblarning orqa yuza bo‘yicha yeyilishga bardoshlilikini oshirish uchun kesish jarayonida qo‘llaniladigan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni magnitlash texnologiyasini ishlab chiqish va tadqiq qilish bo‘yicha belgilangan maqsadga erishish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar shakllantirildi.

Dissertatsiyaning «**Kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklarga magnit maydoni ta’sirini tadqiq qilish uslubiyati**» deb nomlangan ikkinchi bobida metallarni kesib ishlov berishda sodir bo‘ladigan fizik va mexanik jarayonlar, xususiyatlari hamda ularni o‘lchash metodlari tahlil qilingan. Shuningdek, eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni oqib turgan holatida magnitlash sxemalari ishlab chiqildi va suyuqliklarni magnitlovchi qurilma konstruksiyasining loyihasi berildi. Kesib ishlov berish jarayonida hosil bo‘ladigan kesish haroratini o‘lchash metodikasi, moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning kesish jarayoniga ta’sir qiluvchi eng muhim xossalarini o‘lchash hamda ularni oqib turgan holatida magnitlab kesish nuqtasiga yetkazib berishning eng optimal usuli taklif qilindi.


Metallarni kesib ishlov berish jarayonida magnit maydonini qo‘llash uchun yangi magnitlovchi qurilma konstruksiyasini loyihalash juda zarur. Universal magnitlash moslamasi UMD -1 oqayotgan suyuqliklarni magnitlash uchun ishlab chiqilgan. UMD-1 magnitlovchi qurilmasining asosiy maqsadi - har xil qutbli super magnitlarni ushlab turish va bu magnitlar orasidagi masofani o‘zgartirishdan iborat (1-rasm).



1 - rasm. UMD-1 magnitlash qurilmasi.

1-4 - asoslar, 5-8 – magnit tutqichlar, 9-14 - gorizontal boltlar, 15-20 – vertikal boltlar, 21-28 – magnit tutqichlarni mahkamlovchi vintlar, 29,30 – magnitlar.


Keramik quvur magnitlarning o‘rtasiga joylashtiriladi va uning diametrini yuqori va pastki magnitlar orasidagi balandlikka qarab tanlash mumkin. Polivinilxlorid trubkasi UMD-1 magnitlash uskunasi o‘tadi va magnit maydonining uzunligi maksimal 350 mm gacha bo‘ladi. Polivinilxlorid quvur orqali UMD-1 magnitlash qurilmasidan o‘tgan suyuqlik magnitlangan suyuqlikka aylanadi. Magnitlanish jarayonining sxemasi 2-rasmda keltirilgan.



2- rasm. Oqayotgan suyuqlikni magnitlash sxemasi.

1 - UMD-1 magnitlash qurilmasi, 2 – polivinilxlorid quvur, 3 – konteyner, 4 – nasos, 5 – suyuqlik, 6 – jo‘mrak, 7 – suyuqlikning oqish yo‘nalishi.

Suyuqliklarni magnitlash maqsadida o‘zgaruvchan elektromagnit maydon hosil qilish uchun asosi solenoiddan iborat bo‘lgan SMD-2 maxsus magnitlovchi laboratoriya qurilmasi loyihalangan va qurilgan (3-rasm). Qurilma 12 qatlamli solenoid o‘ramlardan hosil qilingan. Har bir qatlamda qalinligi 1,06 mm bo‘lgan 200 ta o‘ralgan mis sim mavjud bo‘lib, solenoiddagi umumiy o‘ramlar soni 2100 tani tashkil qiladi.



3 - rasm. SMD-2 magnitlash qurilmasi yordamida suyuqlikni magnitlash sxemasi.

1-solenoid, 2-keramik quvur, 3-konteyner, 4-nasos, 5-suyuqlik, 6-reostat, 7-transformator, 8-elektr kuchlanishi, 9- o‘zgaruvchan tok.

Kesib ishlov berish vaqtida kesish harorating o‘zgarishi tahlil qilindi va uni o‘lchash uchun tabiiy termostop usuli tanlandi. Bu usul asbobning qirindi va ishlov beriladigan qismi bilan aloqa qiladigan yuzalarida paydo bo‘ladigan o‘rtacha harorat haqida to‘g‘ri natijalarga ega bo‘lishga imkon beradi.

Tajribalarda materiali P6M5 bo‘lgan tezkesar po‘latdan yasalgan kesuvchi asbob ishlatilgan. Shu munosabat bilan, olingan natijalar aniqligini va muhitning bir xilligini ta’minlash maqsadida butun kesuvchi asbobdan foydalanildi.

Moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning magnitlanish jarayoniga ta’sir etuvchi uchta asosiy omil sifatida magnit maydonining induksiyasi, magnitlanish holati va

suyuqlikning oqish tezligi olindi. Shuning uchun olingan natijalar aniqligini ta'minlash maqsadida barcha tajribalar bir xil laboratoriya sharoitida o'tkazildi.

Moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning kinematik qovushqoqligi uning sovitish xususiyatiga ta'sir qiluvchi muhim fizik xossasi bo'lib, uni o'lchash uchun kapillyar naychali shisha viskozimetr, VPJ-4, zichligini o'lchash uchun maxsus densimetr hamda suyuqlikning dinamik qovushqoqligini o'lchash uchun Stoks usulidan foydalanildi. Kesuvchi asbobning orqa yuza bo'yicha yeyilishini o'lchashning bir necha usullari tahlilidan kelib chiqib, tadqiqot ishida ularning ichidan eng qulay bo'lgan Brinell lupasidan foydalanish taklif qilindi.

Metallarni kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni uzatish usullari xilma-xil bo'lib, ular ko'plab maxsus funksiyalarini bajaradi. Sanoatda tig'li keskichlar yordamida detallarga mexanik ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni kesish zonasiga yetkazishning quyidagi usullari qo'llaniladi: erkin tushuvchi oqim, havo suyuqlik aralashmasi yordamida purkash (aerazol), ba'zan ho'llash bilan, vaqti-vaqti bilan kesuvchi asbobga kesishdan oldin quyib turish (maslenkadan oqizish, kistichka bilan surish, botirib olish) usullari. Kesish zonasiga moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni yetkazib berish metodlari ustida amalga oshirilgan tahlillarga asoslanib, moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni magnitlanish darajasi suyuqlikning oqim tezligi past bo'lganda yuqori bo'lishi aniqlandi va tadqiqot ishini amalga oshirishda moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni erkin tushuvchi oqim usulida yetkazib berish texnologiyasi tanlandi.


Dissertatsiyaning **«Kesib ishlov berishda qo'llaniladigan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarga magnit maydoni ta'sirini tadqiqot qilish»** deb nomlangan uchinchi bobi moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning kesish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy fizik va mexanik xossalari ustida amalga oshirilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarga bag'ishlangan.

Moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning asosiy vazifasi xomashyo va asbobni sovutish orqali issiqlikni kamaytirishdir. Bunday sovutish kesish haroratining barqarorligini yaxshilaydi. Sovutish, shuningdek, ishlov beriladigan detalning issiqlikdan kengayishini hamda termik kuchlanishni va sinishlarni kamaytiradi. Natijada, kesib ishlov berish aniqligini oshirish mumkin bo'ladi.


Mukammal moylovchi-sovituvchi suyuqlikni tanlash juda ham muhim hisoblanadi. Chunki MSS kesuvchi asboblarining turg'unligi va unumdorligiga ta'sir qiladi. Tanlash mezonlari ish sharoitlariga va qo'llaniladigan ishlov berish usuliga qarab farq qilishi mumkin. Mukammal moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni tanlashda ularning fizik va kimyoviy xossalari alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik, qovushqoqlik, kimyoviy barqarorlik, past yonuvchanlik, yuqori qaynash harorati, korroziyaga bardoshlilik, oksidlanishlar moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning kesish jarayoniga ta'sir qilishidagi eng muhim xossalari hisoblanadi. Bundan, moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning fizik xossalari o'zgartirish ularning kesish jarayoniga qiladigan ta'sirini ham nazorat qilish imkonini beradi. O'tkazilgan tajribalar shuni isbotladiki, magnit maydoni ta'sir qilganidan so'ng, moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning fizik xossalari sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotlarini o‘tkazish uchun to‘rt xil moylovchi-sovituvchi suyuqlikdan foydalanildi. Bu suyuqliklar bugungi kunda Respublikamizdagi zavodlarda eng ko‘p foydalaniladigan ommaviy MSS lar hisoblanadi. Ulardan birinchisi (suyuqlik-1) toza suv bo‘lib, u mahalliy suv ta‘minoti kompaniyasidan olingan (Suvsoz, O‘zbekiston). Ikkinchi suyuqlik (suyuqlik-2) – bu $K_2Cr_2O_7$ (kaliy dixromat) kukunining toza suvdagi 2% li konsentratsiyasi. Suyuqlik-3, asosan materiallarni qattiq qotishmalar bo‘lgan detallarga mexanik ishlov berishda ishlatiladigan BM-76M (MSS) ning toza suvdagi 5% li konsentratsiyasi. To‘rtinchi suyuqlik esa LACTUCA LT 3000 (suyuqlik-4), bugungi kunda mamlakatimizdagi zavodlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan MSS lardan biri bo‘lib, tajriba uchun uning toza suvdagi 5% li aralashmasidan foydalanildi. Bunday konsentratsiyali MSS lar materiali qattiq bo‘lmagan metallarni kesib ishlov berishda keng qo‘llaniladi. Bu uchta suyuqlik “SUVSANOATMASH” AJ ishlab chiqarish zavodida moylovchi-sovituvchi suyuqlik sifatida ishlatiladi.

MSS larni oqim holatida magnitlab amalga oshirilgan eksperimental tadqiqotlardan magnitlangan suyuqliklarning qaynash harorati magnit maydonining induksiyasiga bog‘liqligi aniqlandi (4-rasm). Magnit maydon induksiyasini oshirganimiz sari, suyuqlikning qaynash harorati ham pasayib bordi. 300 mT magnit maydon induksiyasi ostida magnitlangan (oqayotgan holatda) va magnitlanmagan suyuqliklarning qaynash harorati orasidagi farq suyuqlik-1 uchun $2,9^0\text{C}$, suyuqlik-2 uchun $3,2^0\text{C}$, suyuqlik-3 uchun $3,7^0\text{C}$ va suyuqlik-4 uchun 3^0C ni tashkil etdi. Bundan tashqari, shuni ta‘kidlash kerakki, magnit maydon induksiyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, suyuqlikning qaynash nuqtasi shunchalik past bo‘ldi. Suyuqliklarning eng past qaynash nuqtasi 300 mT magnit maydon induksiyasida aniqlandi.




4-rasm. Oqayotgan holatda turli xil magnit maydon induksiyalarida magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning qaynash haroratlari.



5-rasm. Oqayotgan holatda turli xil magnit maydon induksiyalarida magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning kinematik qovushqoqlik koeffitsiyentlari.

Olingan natijalar magnit maydon oqayotgan suyuqliklarning kinematik qovushqoqlik koeffitsiyentini pasayishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi (5-rasm). Bundan tashqari, oqayotgan suyuqliklarning qovushqoqlik koeffitsiyenti magnit maydon induksiyasiga bog'liq, chunki biz magnit maydon induksiyasini oshirganimizda, kinematik qovushqoqlik, magnit maydon induksiyasiga qarab kamaydi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, eng past qovushqoqlik koeffitsiyenti magnit maydon induksiyasi 300 mT ga yetganda aniqlandi.



6-rasm. Oqayotgan holatda turli xil magnit maydon induksiyalarida magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning zichliklari.

Suyuqliklar zichligi bir xil holatda bir-biridan farqlanishiga qaramay, ular oqayotgan paytda 60 daqiqa magnitlangandan so'ng har bir suyuqlikning zichligi oshdi (6-rasm). Birinchi namunaning zichligi magnitlanishdan oldin 1000 kg/m³ edi, lekin magnit maydon induksiyasini 300 mT ga oshirganimizda, u tajribadagi eng yuqori nuqtasiga yetdi (1010 kg/m³). Suyuqlik-2 va suyuqlik-3 ham mos ravishda 1,002 kg/m³ dan 1,006 kg/m³ gacha va 1,009 kg/m³ dan 1,015 kg/m³ gacha oshdi. Suyuqlik-4 esa boshqa aralashmalarga qaraganda ko'proq magnitlandi, ya'ni uning zichligi 990 kg/m³ da 1,009 kg/m³ gacha ko'tarildi. Bu tajribada ham suyuqliklardagi eng yuqori zichlik magnit maydon induksiyasi 300 mT bo'lganda qayd etildi.

Moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning magnit maydoni ta'sirida bo'ladigan fizik va kimyoviy xossalardagi o'zgarishlar magnit maydonining induksiyasiga bog'liq bo'lib, ularga ta'sir qilayotgan magnit maydonining induksiyasi o'zgarishi bilan suyuqlik xossalari ham o'zgarishlar bo'ladi. Moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning fizik xossalari doimiy magnit maydoni hamda impulsni elektromagnit maydonining ta'siri orasidagi farq aniqlandi. Olingan natijalar asosida moylovchi-sovituvchi suyuqliklarga magnit maydoni tomonidan bo'ladigan ta'sir impulsli elektromagnit maydoni tomonidan bo'ladigan ta'sirga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, magnit maydonlarning suyuqliklarga ta'siri ularning tarkibidagi eritilgan elementlarga bog'liqligi aniqlandi. Tajribada aralashmali suyuqliklarga (suyuqlik-2, suyuqlik-3 va suyuqlik-4) magnit (elektromagnit) maydoni ta'sir etgandan keyin ularning bir xil xossalardagi o'zgarishlarning turli xil bo'lganligini kuzatdik.

Dissertatsiyaning «**Magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni qo'llab kesib ishlov berishni eksperimental tadqiqotlash**» deb nomlangan to'rtinchi bobi harakatlanayotgan moylovchi-sovituvchi suyuqlikni kesib ishlov berish jarayonida magnitlash sxemasini ishlab chiqish, magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni kesuvchi asbobning yeyilishiga ta'sirini eksperimental tajribalar yordamida aniqlashga va turli xil kesish muhitlarida kesuvchi asbobning orqa yuza bo'yicha yeyilishi hamda kesish tezligi orasidagi bog'liqlikning matematik modelini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Magnitlangan MSS larni kesish jarayoniga ta'sir mexanizmini tadqiqot qilishda MSS zichligining, qaynash haroratining, qovushqoqligining kesish haroratiga, magnitlangan MSS ni qirindi kirishish koeffitsiyentiga ta'siri va kesuvchi asbob orqa yuza bo'yicha yeyilishiga ta'sirining nazariy asoslari ishlab chiqildi.

Moylovchi-sovituvchi suyuqlikning kesish haroratini pasaytirishi uning kesish zonasidan o'zi bilan olib ketadigan issiqlik miqdori bilan belgilanadi. MSS hamda kesish zonasidagi issiqlik almashinish jarayoni konveksiya hisobiga amalga oshadi. Issiqlik uzatish jarayonida konveksiya doimo issiqlik o'tkazuvchanlik bilan keladi, ya'ni, MSS qattiq jism yuzasi bo'ylab harakatlanayotganda suyuqlikning turli xil haroratga ega bo'lgan zarrachalari o'rtasida energiya almashinuvi sodir bo'ladi. Shunga asosan, qattiq jism yuzasida harakatlanayotgan suyuqlik va jism o'rtasidagi issiqlik almashinuvi jarayoni Nyuton-Rixman teoremasi (1) orqali ifodalanadi. Nyuton-Rixman teoremasini suyuqliklarning fizik xossalari orqali shakllantirib, ishlov berilayotgan xomashyo va MSS haroratlari ayirmasini uning zichligi va qovushqoqligiga bog'liqlik ifodasi ishlab chiqildi (2).

$$Q = \alpha (T_d - T_{MSS}) \cdot F, \quad (1)$$

$$\Delta T = \frac{q \cdot l}{0.008 \cdot Re^{0.9} \cdot Pr^{0.43} \cdot \lambda} \rightarrow \begin{cases} \Delta T \sim \mu, \\ \Delta T \sim \frac{1}{\rho}, \end{cases} \quad (2)$$

$$Nu = 0.008 \cdot Re^{0.9} \cdot Pr^{0.43} \rightarrow [Nu \sim Re] Re = \frac{w \cdot l \cdot \rho}{\mu} \rightarrow \begin{cases} Nu \sim \frac{1}{\mu}, \\ Nu \sim \rho. \end{cases} \quad (3)$$

bu yerda, α – issiqlik uzatish koeffitsiyenti [$Vt/m^2 \cdot K$], T_d – detal yuzasidagi harorat [$^{\circ}C$], T_{MSS} – MSS ning harorati [$^{\circ}C$], F – suyuqlik harakatlanayotga yuza [m^2], Nu – Nusselt kriteriyasi, Re – Reynolds soni, μ – qovushqoqlik [mm^2/s], λ – issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti [$J/m \cdot s \cdot K$].

MSS ning qovushqoqligini kamayishi va zichligining ortishi uning sovitish xususiyatining ortishiga sababchi bo‘ladi. Amalga oshirilgan eksperimental tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, MSS larni oqim holatida magnitlab kesish jarayonida foydalanish bevosita kesish haroratining pasayishiga va bu esa, o‘z navbatida kesuvchi asbobning yeyilishga bardoshlilikini oshishiga olib keladi.

Kesuvchi asbob va xomashyoning kontakt yuzasida ishqalanish kuchlari ta’sirida paydo bo‘ladigan issiqlik miqdorining ifodasini (3) Fyurening issiqlik almashinuvi qonuniga tenglashtirish orqali kesuvchi asbob orqa yuza bo‘yicha yeyilishini MSS ning issiqlik o‘tkazuvchanligiga bog‘liqligini ifodasini keltirib chiqaramiz (4).

$$q_z = \frac{P_z \cdot v}{b \cdot h_z} \rightarrow \left[\frac{J}{mm^2 \cdot s} \right], \quad (3) \quad \frac{P_z \cdot v}{b \cdot h_z} = -\lambda \cdot grad\theta \quad h_z = \frac{P_z \cdot v}{b \cdot \lambda \cdot grad\theta}$$

$$\lambda = \frac{90 \cdot 10^{-6}}{N^{1/4}} \cdot \sqrt{T_{qay} \cdot \rho \cdot c_p}, \quad h_z = \frac{P_z \cdot v \cdot N^{1/4}}{b \cdot 90 \cdot 10^{-6} \cdot \sqrt{T_{qay} \cdot \rho \cdot c_p} \cdot grad\theta}. \quad (4)$$


(4) ifodadan kesuvchi asbobning orqa yuzasi bo‘yicha yeyilishi MSS ning qaynash harorati va zichligiga teskari proporsionalligi kelib chiqadi. Bundan shuday xulosa qilish mumkinki, MSS ning zichligini va qaynash haroratini ortishi kesuvchi asbob orqa yuzasi bo‘yicha yeyilishini kamayishiga olib keladi. MSS ni magnitlab o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalaridan va (4) ifodadan magnit maydonini MSS lar zichligining ortishiga sababchi bo‘lishi magnitlangan MSS larning issiqlik o‘tkazuvchanligini yaxshilanishiga olib keladi, bu esa kesuvchi asbobning orqa yuza bo‘yicha yeyilishga bardoshlilikini ortishini keltirib chiqaradi.

Moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni kesuvchi asbob orqa yuzasining yeyilishiga ta’sirini aniqlash uchun o‘tkazilgan tajribalar 3 xil sharoitda amalga oshirildi va bunda materiali P6M5 bo‘lgan butun tokarlik o‘tuvchi kesuvchi asbobi hamda materiali Stal 45 bo‘lgan silindrik xomashyodan foydalanildi.


Kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqlik muhitini hosil qilish uchun O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan ko‘plab ishlab chiqarish korxonalarida keng qo‘llanib kelinayotgan moylovchi-sovituvchi suyuqliklardan foydalanildi. Ulardan biri LACTUCA LT 3000 suyuqligining toza suvdagi 5 foizli eritmasi bo‘lib detallarga mexanik ishlov berishda butun dunyoda keng qo‘llanilib keladi. Ikkinchi suyuqlik esa kaliy dixromat ($K_2Cr_2O_7$) kukunining toza suvdagi 2 foizli aralashmasidir. Bu aralashma mamlakatimizdagi korxonalarda uzoq yillardan beri keng qo‘llanib kelinadigan suyuqliklardan biri hisoblanadi. Bu suyuqlikning

alohida xossalaridan biri uni metallarning korroziyalanishiga yuqori ta'sir qilmasligidadir.

Kesish jarayoni dastlab quruq holatda amalga oshirildi va o'lchov asboblari yordamida olingan natijalar yozib olindi. Ikkinchi holatda xrompik kukunining suvdagi 2 foizli aralashmasidan tayyorlangan moylovchi-sovituvchi suyuqlikdan foydalanildi. Undan so'ng, xuddi shu moylovchi-sovituvchi suyuqlik UMD-1 universal magnitlash qurilmasi yordamida oqib turgan holatda 60 minut davomida magnitlandi va kesish jarayonida foydalanildi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, xomashyoga kesib ishlov berish davomida quyib turilgan moylovchi-sovituvchi suyuqlik kesish jarayonida ham oqib turgan holatida 300 mT magnit maydon induksiyasi bilan magnitlab turildi. Oxirgi bo'lib esa, dastgohning konteynerida tinch holatda turgan moylovchi-sovituvchi texnologik muhit 24 soat davomida 300 mT magnit maydon induksiyasiga ega bo'lgan doimiy magnitlar yordamida magnitlab qo'yildi va kesish jarayonida qo'llanildi (7-rasm).



7-rasm. Kesuvchi asbobning orqa yuza bo'yicha yeyilishini kesish tezligiga bog'liqlik grafigi. MSS – kaliy dixromatning suvdagi 2% li aralashmasi. Bu yerda kesuvchi asbob materiali P6M5 tezkesar po'lati va zagatovka materiali Stal 45. Surish tezligi $S=0.45$ ayl/mm, kesish chuqurligi $t=1$ mm.



8 – rasm. Kesuvchi asbobning orqa yuza bo'yicha yeyilishini kesish tezligiga bog'liqlik grafigi. MSS – LACTUCA LT 3000 ning suvdagi 5% li aralashmasi. Kesuvchi asbob materiali P6M5 tezkesar po'lati va zagatovka materiali Stal 45. Surish tezligi $S=0.45$ ayl/mm, kesish chuqurligi $t=1$ mm.

Kesuvchi asbobdagi eng katta yeyilish quruq muhitda amalga oshirilgan jarayonda sodir bo'lganligini ko'rishimiz mumkin ($h_z=2,65$ mm). Moylovchi-sovituvchi suyuqlikdan an'anaviy usulda foydalanib kesganimizda esa, kesuvchi asbob turg'unligi yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin ($h_z=2,4$ mm). Eng yaxshi natija esa moylovchi-sovituvchi suyuqlikni oqib turgan holatida doimiy magnitlar yordamida 300 mT magnit maydon induksiyasi bilan magnitlab ishlov berilganda kuzatildi ($h_z=1,1$ mm). Moylovchi-sovituvchi texnologik muhitni tinch turgan holatda magnitlab kesish jarayonida qo'llanilganda moylovchi-sovituvchi texnologik muhitdan an'anaviy usulda foydalanib ishlov berilgandagi holatdan sezilarli darajada farq qilmadi. Ammo, moylovchi-sovituvchi texnologik muhitni oqib turgan holatda magnitlab kesish jarayonida qo'llanilganda kesuvchi asbobning yeyilishi quruq holda ishlov berganga nisbatan 1,5 baravarga, moylovchi-sovituvchi texnologik muhitni an'anaviy usulda qo'llanganga qaraganda 1,22 baravarga oshirish imkonini beradi (8-rasm).

XULOSA

“Kesib ishlov berishda moylovchi-sovituvchi suyuqlikka magnit maydoni ta'sirini tadqiq qilish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishini bajarish jarayonida quyidagi ilmiy natijalar olindi:

1. Metallarni kesib ishlov berishda foydalaniladigan moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni oqib turgan holatida magnitlashni ta'minlaydigan va dastgohlarning sovitish tizimiga oson o'rnatiladigan UMD-1 universal magnitlash qurilmasi konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

2. Moylovchi sovituvchi suyuqliklarni oqib turgan holatida doimiy magnit va impulsli elektromagnit maydonlari yordamida magnitlash texnologiyasi va sxemasi ishlab chiqilgan. Bu magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklar xossalarining o'zgarishini magnit maydonining induksiyasiga bog'liqligi aniqlash va ularni optimal xossalarini ta'minlaydigan magnit maydonining induksiyasini boshqarish imkonini yaratadi.

3. Moylovchi-sovituvchi suyuqliklarning xossalariga doimiy magnit va impulsni elektromagnit maydonlarining ta'siri eksperimental aniqlangan. Doimiy magnit maydoni ta'siri impulsli elektromagnit maydoni ta'siriga qaraganda 1,5-5 martagacha yuqori ekanligi aniqlangan. Bu magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqliklardan foydalanish kesish haroratini 10-15% gacha kamayish imkonini beradi.

4. Moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni magnitlashda xossalarining o'zgarishi ularning magnitlanish holatiga bog'liqligi va ularning tinch turgan holatga nisbatan oqim holatida magnitlanganda yuqori bo'lishi aniqlangan. Bu kesish jarayonida moylovchi-sovituvchi suyuqlikni oqim holatida magnitlab foydalanganda kesuvchi asbobning yeyilishga bardoshlilikini 18 foizdan 22 foizgacha oshirish imkonini berdi.

5. Eksperimental tadqiqot natijalari asosida magnitlangan va magnitlanmagan moylovchi-sovituvchi suyuqlik muhitlarida tokarlik dastgohida Stal 45 materialiga P6M5 kesuvchi asbob bilan ishlov berishda keskich orqa yuzasi bo'yicha yeyilishini (h_z) kesish tezligiga bog'liqligining matematik modeli olingan.

6. Magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqlik zichligi va qovushqoqligini kesish haroratiga ta'sir mexanizmining matematik ifodasi ishlab chiqildi. Olingan ifoda moylovchi-sovituvchi suyuqlikning zichligi va qovushqoqligi orqali kesish haroratini nazorat qilish imkonini beradi.

7. Magnitlangan moylovchi-sovituvchi suyuqlikni qirindining kirishish koeffitsiyentiga ta'siri eksperimental tadqiqotlar asosida aniqlandi. Kesib ishlashda moylovchi-sovituvchi suyuqlikni oqim holatida magnitlab foydalanish qirindining kirishish koeffitsiyentini 18-20 foizgacha kamayish imkoniyatini yaratadi.

8. Tezkesar po'latdan tayyorlangan kesuvchi asboblarning yeyilishini kamaytirish maqsadida AJ "SUVSANOATMASH" zavodidagi tokarlik dastgohlarida metallarni kesib ishlov berish jarayoniga magnitlangan moylovchi sovituvchi suyuqliklarni qo'llash joriy qilindi. Natijada tezkesar po'latdan yasalgan tokarlik kesuvchi asbobining yeyilishga bardoshliligi 18-22 foizga oshish imkoniyati yaratilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.12.2019.Т.03.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МАРДОНОВ УМИДЖОН ТОХИР УГЛИ

**ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ МАГНИТНОГО ПОЛЯ НА
СМАЗЫВАЮЩЕ – ОХЛАЖДАЮЩИЕ ЖИДКОСТИ ПРИ РЕЗАНИИ**

**05.02.05 – Технологии и процессы механической и физико-технической обработки.
Станки и инструменты**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2022

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за В2020.2.PhD/T1607.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице www.tdtu.uz и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу www.ziynet.uz.


Научный руководитель:	Умаров Эркир Адилович кандидат технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Файзиматов Шухрат Нуманович доктор технических наук, профессор
	Нугманов Икром Нугманович кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Андижанский машиностроительный институт


Защита диссертации состоится «18» июля 2022 года в 10:00 часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.03.04 при Ташкентском государственном техническом университете. (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 246-46-00, факс: 227-10-32; e-mail: tstu_info@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрировано за номером № 262). (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел. (99871) 207-14-70).

Автореферат диссертации разослан «4» июля 2022 года
(реестр протокола рассылки № 145 от «4» июля 2022 г.)




К.А. Каримов
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор


Н.Д. Тураходжаев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор


А.А. Мухитдинов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире по производстве деталей машин особое значение имеет применение новых технологий, использование смазочно-охлаждающих жидкостей в процессе резания для повышения стойкости и срока службы режущих инструментов, обеспечивающие высокой точности заготовок. В то же время во всем мире как применение смазочно-охлаждающих жидкостей, повышающих стойкость режущих инструментов, которые играют особую роль в обеспечении точности обработки деталей машин, требуется разработка и внедрение новых технологий. В связи с этим важным является использование, при резании металлов высокой производительности труда и энергосберегающих технологий и приспособлений. В связи с этим многие научные центры ряда стран мира, в том числе США, Великобритании, Германии, Индии, России, Китая и других промышленно развитых стран, проводят исследования современных технологий повышения износостойкости режущего инструмента и смазочных материалов к повышению износостойкости режущих инструментов играет важную роль в разработке эффективного содержания. С этой точки зрения во всем мире проводятся обширные исследования по улучшению свойств смазочно-охлаждающих жидкостей, повышающих износостойкость режущих инструментов, используемых при резании металлов.

В мире проводятся исследования по повышению износостойкости режущих инструментов для обеспечения требуемой точности размеров и шероховатости обрабатываемых поверхностей при изготовлении деталей машин. В связи с этим, одной из актуальных задач является разработка различных технологий обработки для улучшения свойств смазочных материалов, служащих для достижения точности деталей машин и повышения их износостойкости.

